

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASB HUNARLARGA YO'NALТИРИШ ISHLARIGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Gulchehra Safarovna Pardayeva*

*O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasи katta  
o'qituvchisi, Samarqand sh.*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarini o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari mazmun-mohiyati ochib berilgan. O'qituvchilarni maktabda kasbga yo'naltirish ishlariga tayyorlash zamonaviy ta'lim-tarbiyaning dolzARB muammolaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, kasb-hunar, kompetensiya, o'quv mashg'ulotlar.

**Аннотация:** В статье раскрывается сущность работы будущих учителей по профориентации учащихся. Подготовка учителей по профориентационной работе в школе является одной из актуальных проблем современного образования.

**Ключевые слова:** профессиональное мастерство, профессия, компетентность, обучение.

Mamlakatimizda o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'naltirish ishlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, pedagogik, psixologik, ma'naviy-ma'rifiy muammolardan hisoblanadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridagi biri sifatida jiddiy e'tibor bilan qaraladi. Har yili kasb hunar kollejlarini tugallab chiqayotgan ko'p minglik mutaxassislarni isha joylashtirish, ularning bandlik xizmatini ta'minlash mamlakat ishlab chiqarish, iqtisodiyoti va moddiy hamda ma'naviy turmush tarziga jiddiy ta'sir etadi. Jumladan, Respublikamizdagi 10 minga yaqin umumiyoq o'rta ta'lim maktabalarini bitirayotgan o'quvchilarning kelajakda kasb-hunarlarni to'g'ri tanlashi va hayot yo'lini jamiyat ravnaqiga monand ravishda belgilashi ham muhim ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolardan hisoblanadi. Albatta bu ishda ushbu ishda o'quvchi-yoshlarga yordam berishda o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy mahoratlari, o'tkazgan kasbiy tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi-yoshlarni kelajak hayotga, kasb-hunarlarga yo'naltiradigan tadbirlarni o'tkazish uchun o'qituvchi-pedagoglar kasb-hunarlarga yo'naltirish ishlarining quyidagi nazariy va amaliy masalalari bilan tanish bo'lishlari hamda ularning yechimlarini mahalliy milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda trpa bilihlar zarur bo'ladi:

1. Kasblarga oid ma'lumotlar bilan tanish bo'lishlari.

2. Kasblarning tarixi, ta'rifi, tasnifi (professiogrammalari, psixogrammalari)ni yaxshi bilishlari lozim. Kasblar professiogramalar – kasb-kor egasining mazkur kasbga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalari, tushuncha va tasavvurlari mahorati darajalari, ish tajribalari, bajaradigan vazifalari ish o'rniga quyiladigan talablar, tayyorlaydigan mahsulotlari ta'riflari va boshqala batafsil ta'minlaydi. Kasblar psixogrammasi –mutaxassislarni mazkur kasblarga zaruriy ruhiy va jismoniy tayyorgarliklari xususiyatlari, xislat, fazilatlari batafsil ta'riflanadi. Shaxsning xarakteri, irodasi, mijozи, iqtidori, xayoli, layoqati va qiziqishlarining o'zi tanlagan kasb xususiyatlariga mos kelishi haqida so'z yuritiladi.

3. Kasb-hunar egalarining mehnat faoliyati jarayoni xususiyatlari(trudogrammalari)ni ta'riflay olishlari:

4. Kasb-hunarlarga yaroqlilik darajalari (kasb-hunarlarning kishilarga qo'yadigan ruhiy, aqliy, jismoniy va boshqa talablari, hamda bo'lg'usi kasb hunar egalarining kasb-hunarlarni egallashdagi maqsadi, vazifalari, orzu-umidlari, niyatlari va boshqalar.

5. Kasb-hunarlarni egallashi texnologiyalari, jarayoni, ta'lim muassasalari tavsifnomalari (manzilgohlari, kasbiy ta'lim yo'nalishlari, turlari, ta'lim texnologiyalari, o'quv-metodik adabiyotlar va apparatlari, asbob-uskunalari bilan jihozlanganligi, tayyorlanayotgan kasb-hunar egalarini faoliyat ko'rsata olish sohalari, korxonalari va boshqalar; o'qituvchi-pedagoglar kasb-hunarlarning turlari, turkumlari, tiplari, sinflari bilan ham umumiylar va xususiy holda yaxshi tanish bo'lilar. O'quvchilarga kasbiy maslahatlar, yo'l-yo'riqlar yo'llanmalar berishlarida, turli xil tadbirlarni maqsadli va mazmunli o'tkazishlarida zarur bo'ladi. Masalan, kasb-hunarlarning akademik Ye.A.Klimov fikriga ko'ra quyidagi turkumlarga taqsimlanishi hozirgi davrda jamoatchilikka keng ma'lum: "Odam-odam", "Odam-texnika", "Odam-belgililar tizimi", "Odam-tabiat", "Odam-badiiy obraz"; Albatta, o'quvchilar tanlaydigan kasb-hunarlar yuqoridagi shajaranishning birortasiga mansub bo'lishini o'qituvchi aniqlab beradi. Bundan tashqari kasb-hunarlarning mehnat sharoitiga qarab oddiy sharoitlarda (temperatura +18, +20 darajada, namlik va yorug'lik mo'tadil bo'lgan holatlar) va nooddiy (oddiy bo'limgan) sharoitlarda – balandlikda (masalan, reaktiv samolyotlarda sinovchi-uchuvchilarda, kranchilarda, suv ostida – g'ovvoslarda va zaharli ximikatlar bilan ishlovchilar, shaxtalarda ishlovchi konchilar va boshqalar) qo'l mehnati, elektrlashtirilgan asbob-uskunalar bilan ishslash, konveyer (oqimli) seriyali ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat ko'rsatuvchi kasb-hunarlar faoliyati bilan tanishtirib borish va boshqalar

O'qituvchi-pedagoglar o'quvchi yoshlarni turli xil kasb-hunarlarga yo'naltirishlarida quyidagi kasbiy-tashhisiy tadbirlarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

1. O'quvchi-yoshlarning kasb-hunarlargaga qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari, layoqatlari darajalarini aniqlashlari. Buning uchun ularning o'zlari, ota-onalari, do'stlari, qarindoshlari va o'qituvchilari hamda boshqalari bilan suhbatlashishi, ular bilan anketalar, so'rovnomalar o'tkaziladi.

2. O'quv mashg'ulotlarida sinfdan va maktabdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarda kasbiy ma'lumotlar, axborotlar berib borish.

3. Turli xil kasbiy tadbirlar orqali kasb-hunarlar to'g'risida tushunchalarni, tasavvurlarni, ma'lumotlarni, bilimlarni shakllantirib, rivojlantirib borish.

4. Kasbiy ta'lim muassalariga, akademik liseylarga, kasb mакtablariga, kasb-hunar kollejlariga yo'naltirish, ular to'g'risida nisbatan to'liq ma'lumotlar berish.

5. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayoni, ularning bitiruvchilari faoliyatini to'g'risida ma'lumotlar berish.

Demak, o'quvchi-yoshlarning kasb-hunarlargaga to'g'ri yo'naltirish to'g'risida o'qituvchilar kasb maslahatlarni maqsadga muvofiq holda berishlari va kasbiy tadbirlarni davlat va jamiyat buyurtmalarini, maqsadi, vazifalariga muvofiq holda o'tkazishlari uchun oliy o'quv yurtlarida ana shunday BKMLar bilan qurollantirishlari hamda tegishlicha kasbiy, pedagogik, psixologik, metodik, ma'naviy-ma'rifiy mahorat darajalariga ega bo'lishlari lozimdir.

#### **Bibliografik ro'yxat:**

1. Jurayev Z.H., Tolipov O., Sharipov Sh. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. –T.: Fan, 2004 y., 120 b.
2. Pardayeva G. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni milliy hunarlarga yo'naltirishga tayyorlash texnologiyasi //Innovasii v pedagogike i psixologii. – 2022. – T. 5. – № 4
3. Pardayeva G. Boshlang 'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalar //Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2021. – S. 42-45.
4. Haydarov I.O. Uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari, metod va vositalari. // Maktab va hayot jur., 2012 y., № 7-8, 5-6 betlar.
5. Eshpulatov Sh.N., Pardayeva G.S. Glava 7. Podgotovka budushchih uchiteley nachalnykh klassov k innovacionnoy deyatelnosti v sisteme vysshego obrazovatelnogo uchrejdeniya //Innovations in education. – 2015. – S. 69-86.